O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:8.751

Valida MADIYOROVA,
PhD, Samarqand davlat chet tillari instituti doktoranti, Samarqand, O‘zbekiston
E-mail: volidaravshanbek@gmail.com, ORCID: 0000-0029-3698-1056

Dotsent, Q.M.Olloyorov taqrizi asosida

TARJIMA VA GENDER MUNOSABATLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarjima ve gender munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, tarjimon mansub bo‘lgan jinsning badiiy tarjimaga ta’siri haqida so‘z boradi. Shuningdek, gender va tarjimon ideologiyasining o‘zaro munosabati, tarjimon jinsining tarjima jarayonining aynan qaysi jihatlariga, qaysi xususiyatlariga ta’sir qilishi va buning sabablari so‘roq ostiga olinadi.
Kalit so‘zlar: tarjima, gender, genderizmlar, ayollar tasviri, pragmatika, badiiy tasvir, feministik tarjimashunoslik.

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА И ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация

В данной статье рассматриваются специфические особенности перевода и гендерных отношений, в частности влияние пола переводчика на художественный перевод. Также анализируется взаимосвязь гендера и идеологии переводчика, подвергаются исследованию вопросы о том, на какие именно аспекты и характеристики переводческого процесса влияет пол переводчика и каковы причины этого влияния.
Ключевые слова: перевод, гендер, гендеризмы, изображение женщин, прагматика, художественное изображение, феминистское переводоведение.

CHARACTERISTICS OF TRANSLATION AND GENDER RELATIONS

Аннотатион

This article discusses the specific features of translation and gender relations, including the influence of the translator's gender on literary translation. It also examines the interrelationship between gender and the translator's ideology, questioning precisely which aspects and characteristics of the translation process are affected by the translator's gender and the reasons behind it.
Keywords: translation, gender, genderisms, representation of women, pragmatics, literary imagery, feminist translation studies.

Kirish. Tarjima, avvalambor, til mahsulidir, u asliyat matnining inson ongida qayta ishlangan, muayyan ma’noda to‘ldirilgan va to‘g‘irlangan, boshqacha qilib aytganda, qaytadan bunyod etilgan namunasidir. Tarjima jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun esa, nafaqat har ikki tildagi lingvistik bilimlarga ega bo‘lish, balki asliyatda tasvirlangan voqea-hodisalar bilan bog‘liq tarixiy muhit, muallifning ichki olami, uning kelib chiqishi, hayot yo‘li, shu bilan bir qatorda asar tarjimasini o‘quvchi shaxsning o‘ziga xos xususiyatlaridan xabardor bo‘lish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, tarjimaga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillar juda ko‘p bo‘lib, ular ichida eng dolzarblaridan biri bu tarjimaga genderning, ya’ni tarjimon mansub bo‘lgan jinsning ta’siridir. Bu borada ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, tarjima, gender va tarjimon ideologiyasining o‘zaro munosabati haliyam chuqurroq o‘rganilishga muhtoj yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu tadqiqotimizning asosiy gipotezasi ham shu bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, tarjimonning qaysi jins vakili ekanligi, uning g‘oyaviy qarashlari – ideologiyasi tarjimaga (jarayon va tugallangan ijod namunasi sifatida) qanday ta’sir qilishini o‘rganishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Fanda tarjima va genderning o‘zaro munosabati, ularning aloqasi va tarjimaga ta’sir qilishi masalasiga qaratilgan tadqiqotlar yaqin-yaqinlarda paydo bo‘lgani yo‘q. Bu muammoga qiziqish o‘tgan asrning 90-yillaridayoq uyg‘ongan va ilm-fan darg‘alaridan Sh.Simon, L. von Flotov va L.Chamberlain asarlarida muhokamaga tortilgan edi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, asrlar davomida ayol yozuvchilar qalamiga mansub asarlarning, shu bilan bir qatorda ayol tarjimonlar tomonidan o‘girilgan tarjimalarning ikkinchi darajali ekanligi to‘g‘ridan to‘g‘ri jar solib aytilmagan bo‘lsa-da, bu faktni rad qilib bo‘lmaydi [1]. Sh.Simon bu vaziyatni quyidagicha izohlaydi: “Cheklangan yoki qaram guruh vakillari tarjimadan dominant qatlam vakillari tili va madaniyatida o‘zlarini ifodalash vositasi sifatida foydalanib kelishgan [1]”. Xuddi bir vaqtlar mustamlaka bo‘lgan xalq vakillari yoki immigrantlarning o‘zlari haqida yozilgan asarlarni tarjima qilishga boshqacha yondashgani kabi, uzoq yillar mobaynida eshitilmagan, chetlab kelingan ayollar ham tarjima jarayonida o‘zlarini eshittirishga, ular his qilgan tuyg‘ular, ularning xayolida kechgan o‘y-fikrlarni tarjimaga singdirishga harakat qiladi, degan fikrni ilgari suradi muallif.

Tarjima va genderning o‘zaro munosabati haqida amalga oshirilgan tadqiqotlar turli yo‘nalishda ekanini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, B.Moghaddas tarjimonning jinsi tarjimaning sifatiga ta’sir qilishi mumkin degan nazariyani so‘roq ostiga oladi. Muallif fors tilida yozilgan 6 xil asarning ingliz tiliga tarjimalarini solishtirar ekan, tarjimonning jinsi tarjimaning sifatini belgilab beruvchi omil emas ekanligini isbotlagan [2]. X. Vang va L. Xiaoqunlarning ishida esa, ayol jinsiga mansub tarjimonlar asliyat matnidagi feministik elementlar tarjimasiga alohida yondashishi o‘z isbotini topgan [3]. Bu borada amalga oshirilgan yana bir ko‘zga ko‘rinarli tadqiotlardan V.Leonardining ishida erkak va ayol tarjimonlar tomonidan qo‘llanilgan tarjima strategiyalarining kontrastiv tahlili amalga oshiriladi [4].

Materiallar va metodlar. Albatta, tarjimon jinsining tarjimaga qanday ta’sir qilishini aniqlash va baholashni subyektiv fikrlarga tayangan holda amalga oshirib bo‘lmaydi. Ushbu masalani yechishda olimlar turli yondashuvlardan foydalanishgan. Shulardan biri “Tanqidiy kontrastiv matn

tahlili” (CCTL – critical contrastive text linguistics) bo‘lib, V.Leonardi bu yondashuvning quyidagi xususiyatlarga tayanishini izohlab o‘tadi [4]:

-grammatik va sintaktik sath (grammatik gender va tranzitivlik);

-tematik struktura va so‘z tartibi;

-leksik-semantik sath (so‘z va ma’no ekvivalentligi, qayta tahlil);

-pragmatik sath;

- tushirib qoldirish (omission), qo‘shish (addition) kabi strategiyalar;

-punktuatsiyadan foydalanish;

-nomuqobil tarjimalarni tahlil qilish;

-paratekstual va paratarjimaviy vositalar (asarning kirish va muqaddima qismlari) va hokazolar.

Tahlilga tortilayotgan asarimiz Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjimalari bo‘lib, ushbu asar 2019-yilda Karol Yermakova tomonidan “Days Gone By” sarlavhasi bilan Juli Uikeden muharrirligi ostida chop etilgan. Ayni shu yili amerikalik tadqiqotchi va tarjimon Mark Rizning 15 yillik mahsuli bo‘lmish ayni asar tarjimasi “Bygone days” nomi bilan nashrdan chiqdi.

Asosiy tahlil nuqtamiz tarjimonlar bo‘lganligi uchun, ularning kimligi, ular muayyan milliy-madaniy parchalarni qanday tarjima qilganligi, muayyan gender xoslangan birliklarni tarjima qilishda qanday vositalardan foydalanishgani tarjimalarning qiyosiy tahlilini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar va muhokama. Fikrimizni dallillash uchun “O‘tkan kunlar” romanidan olingan quyidagi misolni ko‘rib chiqamiz:

“Otabek Rahmatning bu so‘zini samimiyat bilan qarshiladi.

— So‘zingizning to‘g‘rilig‘ida shubha yo‘q, — dedi,— ammo shuni ham qo‘shmoq kerakki, oladirg‘on xotiningiz sizga muvofiq bo‘lishi barobarida er ham xoting‘a muvofiquttab’ bo‘lsin.

— Xoting‘a muvofiq bo‘lish va bo‘lmasliqni uncha keragi yo‘q, — dedi Homid e’tirozlanib, — xotinlarga “er” degan ismning o‘zi kifoya... ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga muvofiq bo‘lsa bas” [5].

Parchadan ko‘rinib turibdiki, ikkala qahramon ham o‘zlarining turmush va nikoh haqidagi qarashlarini ikki xil qarama-qarshi qutblarda ifodalashgan. Abdulla Qodiriy asarning ikki vakili Homid va Otabek o‘rtasidagi kontrastni asarning boshidanoq turli vositalar orqali ifodalashga harakat qilgan, bu bilan o‘quvchida ularning turli xil dunyoqarashga ega ekanligi, turli xil xarakter sohibi ekanliklari to‘g‘risida tasavvur paydo qilgan. Otabek hamsuhbatining fikrini ma’qullar ekan, xotin va erning bir-biriga mosligi muhimligini ta’kidlab, erkak va ayolning bu masalada teng fikrga egaligiga urg‘u beradi. Homid esa, erkak kishining xotinga mos kelishini ahamiyatsiz deb bilib, ayol uchun erga ega bo‘lish maqomining o‘zi yetarli ekanligini ta’kidlaydi. Ya’niki, Otabekning pozitsiyasi nikoh munosabatlarining o‘zaro tenglikka asoslanishiga tayansa, Homidning so‘zlarida erkakning xotinga nisbatan yuqori o‘rinda turishi masalasi ko‘rinadi. Asar yozilgan davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, XIX asr oxiri XX asr boshlarida jamiyatda gender notengligi yaqqol ko‘zga tashlanadigan davr bo‘lganligini ham inobatga olish shart, shundan kelib chiqib Otabekning bu fikrlari o‘z zamoni uchun yangilik, zamonaviy dunyoqarash bo‘lib xizmat qilgan. Qodiriy ham buni yaxshi anglab, o‘sha davrdagi jamiyatdagi turli qatlamlar, ziyolilar va dindor mutaassiblar o‘rtasidagi farqni ochib berishga harakat qilgan.

Asardan ushbu parchaning tahlilga tortilishining yana bir sababi, unda genderizmlarning mavjudligi bo‘lib, genderizmlar tarjimasi tarjimonlardan alohida yondashuvni talab qiladi. Quyida berilgan ikkala tarjimaning qiyosiy tahlilini amalga oshiramiz.

Translation by Mark Reese	Translation by Carol Ermakova
“Otabek seemed to warm to Rahmat’s view. “No doubt your words carry some truth,” he said, “but we must add that although the woman must be suitable to the man, the man must also be suitable to the woman. “As far as I am concerned, from a man’s perspective, I don’t think we need to take into account whether a man suits a woman’s tastes,” said Hamid a bit abruptly. “For a woman, just having a husband is in itself sufficient; as my nephew states, if the woman suits the man, that is the only consideration that matters” [6].	“This statement met with Atabek’s agreement. “Indeed, without a shadow of a doubt, your words are true,” said he. “I must add, however, that just as the wife should suit the husband, so the husband should fully suit his spouse.” “If you ask me, whether the husband matches or not is of little import.” Disagreement jarred in Hamid’s voice. “One word is sufficient for any wife: 'husband'.. Nevertheless, as my nephew rightly pointed out, the main thing is that she is suited to her husband” [6].

Umuman olganda, har ikkala tarjimada ham muqobillik ta’minlangan, har ikkala tarjimon ham asliyatda berilgan ma’no-mazmunni saqlashga, qahramonlar pozitsiyasi va ideologiyasini aniq-tiniq ifodakashga aharakat qilishgani ko‘rinib turibdi. Lekin, ularning ma’noni ifodalash usullarida nozik farqlar borligi ham ko‘zga tashlanadi. M.Riz tomonidan amalga oshirilgan tarjimada ko‘rinib turibdiki, asliyatdagi “er” va “xotin” genderizmlari “man” (erkak) va “woman” (ayol) leksemalari orqali, ya’ni umumiy jins kategoriyalari tarzida o‘girilgan. Vaholanki, K.Ermakova bu o‘rinda “husband” (er) va “wife” (xotin, rafiqa) leksemalarini, ya’ni shaxslararo munosabat shakllarini qo‘llashni afzal deb biladi. Bu tarjimonning turmushdagi rollarga urg‘u berishini, oiladagi har ikkala shaxsning funksiyasi mavjudligini yana bir bor ifodalashga harakat qilganligini ko‘rish mumkin.

Keyingi jumlada ham, muayyan farqlar ko‘zga tashlanishini ko‘rish mumkin. Jumladan, “— Xoting‘a muvofiq bo‘lish va bo‘lmasliqni uncha keragi yo‘q, — dedi Homid e’tirozlanib, — xotinlarga “er” degan ismning o‘zi kifoya...”. M.Riz tarjimasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “from a man’s perspective” jumlasi alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan qismlardan biridir. Asliyatda aynan “erkak kishining nuqtayi nazariga ko‘ra” degan jumla mavjud emas, lekin tarjimon parchaga yanada kuchli urg‘u berish, asardagi erkak tomonidan bildirilayotgan radikal fikrni kuchaytirish uchnun aynan shunday yo‘l tutgan bo‘lsa kerak. Lekin, K.Yermakovaning tarjimasida bu qism “If you ask me” shaklda neytrallashganligini ko‘rish mumkin.

Keyingi qismda Homidning noroziligi va Otabekning fikriga qo‘shilmasligi yorqin aks etgan va buni M.Riz “said Hamid a bit abruptly” shaklida, K.Yermakova esa, “Disagreement jarred in Hamid’s voice” shaklida berishgan. Ikkinchi tarjimada emotsional-hissiy tonning va pragmatik kuchning yorqinligi ko‘zga tashlanadi. “jarred” fe’li orqali Homidning ovoz toni va jarangini ifodalashni maqsad qilgan tarjimon, buni uddalagan deya olamiz.

Xulosa. Shuni ta’kidlash joizki, mazkur ishda ko‘rib chiqilgan jihatlar ayol va ekak tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar bir-biridan keskin farq qiladi degan xulosani berish uchun yetarli emas. Zero, boshidan bizning maqsadimiz buni isbotlash emas, balki, tarjimon jinsining tarjima jarayonining aynan qaysi jihatlariga, qaysi

xususiyatlariga ta’sir qilishini aniqlash va buning sababi nima degan savolga javob topish edi. Shundan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni keltirish mumkin.

Birinchidan, har ikkala tarjimon ham asardagi gender ideologiyasini to‘liq saqlashgan, ya’ni Otabekning o‘zaro tenglikka urg‘u berishi, Homidning esa, erkakni ayolga nisbatan ustunroq pozitsiyada turishi haqidagi fikri, ular o‘rtasidagi konstraktiv farqlar tarjimada saqlanib qolgan.

Ikkinchidan, tarjimalardagi muayyan farqlar, tarjimonlarning qaysi genderga mansubligidan emas, balki asardagi uslubiy bo‘yoqdorlikni kuchaytirish, o‘quvchida o‘sha davr mafkurasiga oid dunyoqarashni shakllantirish hamda asar ruhiyatini yorqinroq ifodalash maqsadida amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, tarjimaga uni o‘girayotgan tarjimonning jinsi ta’sir qilishi yoki yo‘qligi masalasiga oydinlik kiritish uchun bitta misol, hatto bitta asar doirasidagi tarjimalar qiyosi ham kamlik qiladi. Buning uchun boshqa tegishli omillarni hisobga olgan holda, ayollar va erkaklar tomonidan tarjima qilingan asarlarni (turli davr, turli ijtimoiy muhit, turli janr va hk.) tahlil qilishga ehtiyoj bor.

ADABIYOTLAR

1. Simon Sh. Gender in Translation: Cultural identity and the politics of transmission. London: Routledge, 1996.
2. Moghaddas B. The effect of gender in translation accuracy of Iranian English translators. // International journal of management and humanity sciences. Volume 2 (3), 227-236, 2013.
3. Wang X., Xiaoqun L. Gender in translation: A case study of translations of The Woman Warrior. // Jounal of education and Humanities. Vol 13 (1), 2024.
4. Leonardi V. Gender and ideology in translation: Do women and men translate differently? A contrastive analysis from Italian into English. Bern: Peter Lang. Total page: 323.
5. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. –Toshkent:Oltin qalam, 2024.
6. Qodiriy A. O‘tkan kunlar (Bygone Days) / translator Mark Reese. –Tashkent: “Booktopia”, 2026.
7. Qodiriy A. O‘tkan kunlar (Bygone Days) / translator Carol Ermakova. –Paris: “Harmonist”, 2019.